



YANGI O'ZBEKİSTONNING XALQARO MUNOSABATLARDA TUTGAN O'RNI

*Xayitova Feruza Baxrom qizi*

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini

rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"

ilmiy-tadqiqot markazi

ORCID: 0009-0006-6903-7751

[Xayitova1994@mail.ru](mailto:Xayitova1994@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Yangi O'zbekistonni xorij mamlakatlari va mintaqalararo xalqaro miqyosda rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, davlatlar iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan strategiyalar va amaliyotlari haqida yoritib berilgan. O'zbekiston Markaziy Osiyoda strategik ahamiyatga ega bo'lib, Xitoy, Rossiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi yirik davlatlar va tashkilotlar bilan keng ko'lamli hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelmoqda. Maqolada mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi hissasi, import va eksport ulushi hamda xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** jahon iqtisodiyoti, import, eksport, milliy iqtisodiyot, xalqaro munosabatlар, elchixonalar, tashqi savdo, xalqaro shartnomalar.

РОЛЬ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

*Хайитова Феруза Бахром кизи*

Научно-исследовательский центр «Научные основы  
и проблемы развития экономики Узбекистана»  
при Ташкентском государственном  
экономическом университете

**Аннотация.** Данная статья проливает свет на современные тенденции развития Нового Узбекистана на международном уровне между зарубежными странами и регионами, стратегии и практики, направленные на укрепление экономических связей. Узбекистан имеет стратегическое значение в Центральной Азии и развивает широкомасштабные отношения сотрудничества с крупными странами и организациями, такими как Китай, Россия, США и Европейский Союз. В статье представлена подробная информация о вкладе нашей страны в мировую экономику, доле импорта и экспорта, ее роли в международных отношениях.

**Ключевые слова:** мировая экономика, импорт, экспорт, национальная экономика, международные отношения, посольства, внешняя торговля, международные соглашения.

## THE ROLE OF NEW UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL RELATIONS

***Khayitova Feruza Bakhrom kizi***

*Research center "Scientific bases and issues of economic development of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics*

***Annotation.*** This article sheds light on the modern trends of the development of New Uzbekistan at the international level between foreign countries and regions, strategies and practices aimed at strengthening economic relations. Uzbekistan is of strategic importance in Central Asia and has been developing large-scale cooperative relations with major countries and organizations such as China, Russia, the USA and the European Union. The article provides detailed information about our country's contribution to the world economy, the share of imports and exports, and its role in international relations.

***Key words:*** world economy, import, export, national economy, international relations, embassies, foreign trade, international agreements.

### **Kirish.**

Bugungi kundagi Yangi O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri - bu mintaqaviy davlatlar bilan aloqalarni, har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdan hamda mustahkamlashdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida Markaziy Osiyoda tinchlik, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni va farovonlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, mamlakatimiz G'arb, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni jadal va izchil rivojlantirib, ularni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to'ldirishga intilmoqda. Davlatimizning tashqi savdo aylanmasi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Yangi O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni mavzusida yozilgan xorijiy va mahalliy adabiyotlar keng qamrovli bo'lib, ular iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, tashqi siyosiy-iqtisodiy aloqalar, xorijiy davlatlar iqtisodiyoti va xalqaro tashkilotlar yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borishgan.

Amerikalik iqtisodchi Joseph Stiglitz (2002) tomonidan "Globalization and Its Discontents" tomonidan yozilgan kitob globalizatsiya jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarini tahlil qiladi. Stiglitz globalizatsiyaning ijobjiy va salbiy jihatlarini ko'rib chiqadi va uning oqibatlari haqida chuqur tahlil qilgan. Angliyalik olimlar Stephen Mcglinchey (2017), Rosie Walters va Christian Scheinpfluglar tomonidan yozilgan "International Relations Theory" kitobida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bugungi kundagi roli va mohiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari va asosiy teoriyalar berilgan. Theodore Moranning (2011) "Foreign Direct Investment and Development" kitobida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanish va global savdo aloqalariga ta'sirini tahlil qiladi.

Mahalliy olimlardan Nazarova, Iminov, Xalilov, Hamidovlarning (2011) "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" o'quv darsliklarida, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning umumiy rivojlanish xususiyati o'zgarib borayotgan bir davrda O'zbekiston Respublikasi ham jahon hamjamiyatiga kirib borishi, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi hamkorliklar rivojlantirishi, xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganishi, shuningdek bozor iqtisodiyotining rivojlanishidagi yutuq - kamchiliklari, rivojlanish muammolarini hal etishdagi to'g'ri yondashuvlar haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan. Iqtisodchi olim Mirsaidovning (2006) "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" o'quv qo'llanmasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning hozirgi zamondagi roli va mohiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari, tashqi

iqtisodiy faoliyatini tartibga solish usullari, xalqaro savdo, xalqaro hududiy-iqtisodiy integratsiya va boshqa iqtisodiy masalalar keng yoritilgan. Iqtisodchi Mustafoqulova (2023) o'zining maqolasida O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishi, respublikamizning ham ichki, ham tashqi salohiyatni yanada yuksalib borasida ko'plab ma'lumotlar berilgan. O'zbekistonning integratsiya tuzilmalaridagi ishtiroki tufayli uning ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro aloqalari kengayib borayotganligini yoritib bergan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, o'zaro va siyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlardan kelib chiqgan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv xalqaro munosabatlarni olib bormoqda. Ma'lumki, asrlardan beri xalqaro munosabatlar qadimdan insoniyat ijtimoiy, madaniy hamda ma'naviy rivojining muhim omili sifatida rivojlanib kelgan. Ayniqsa, oxirgi yillarda mamlakatimizda xorijiy davlatlar bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash orqali yurtimizda yashab kelayotgan barcha millat va etnik guruhlar madaniyati, ma'naviy qadriyatları, milliy an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga tayanib faoliyat yuritayotmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillarining birgalikda, ahil va hamjihatlikdagi o'zaro munosabatlari ta'sirida ko'pmillatli xalqimizning turmush tarzi ham yanada yaxshilanib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va yuqori saviyadagi muzokaralarda faolligi tufayli "Dunyoga ochiqlik siyosati"ga sodiq qolayotgan Yangi O'zbekistonning yangi hamkorlari, xayrixohlari ortib bormoqda. Davlatimiz rahbarining xalqaro tashriflari natijasida mamlakatimiz xorij davlatlari bilan faol diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ydi. Xususan, bir qator yirik davlatlar bilan munosabatimiz strategik sheriklik darajasigacha ko'tarildi.

Bugungi kundagi Yangi O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri - bu mintaqaviy davlatlar bilan aloqalarni, har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdan hamda mustahkamlashdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida Markaziy Osiyoda tinchlik, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni va farovonlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, mamlakatimiz G'arb, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni jadal va izchil rivojlantirib, ularni sifat jihatidan yangi mazmun bilan to'ldirishga intilmoqda. Davlatimizning tashqi savdo aylanmasi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Buning asosiy sabablaridan biri mamlakatning tashqi savdo aloqalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan siyosati va yangi bozorlar bilan hamkorlik o'rnatishtir. 2023 yilda umumiy tashqi savdo aylanmasi \$50 milliard AQSh dollaridan oshdi. Bundan eksport hajmi \$19,3 milliard AQSh dollarini, import hajmi \$30,7 milliard AQSh dollarini hamda savdo balansi esa \$11,4 milliard AQSh dollari miqdorida salbiy balansni tashkil qilgan edi. Davlatimizning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish maqsadida, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xalqaro munosabatlarni yaxshilash va rivojlantirish borasida alohida 93-maqsadi qilib belgilandi. Bunda quyidagilar ta'kidlangan (Farmon, 2022).

- Hamkor mamlakatlari bilan hamda xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish.

- Yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni kelishish.

- Yirik tadbirlarda (xalqaro tashkilotlar doirasida va xorijiy hamkorlar bilan sherikchilik asosida hamda ikki tomonlama hamkorlik darajasidagi konferensiya, forum, seminar va davra

suhbatlari) mintaqaviy va xalqaro masalalar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasi hamda umumjahon miqyosidagi tashabbuslarini ilgari surish<sup>23</sup>.

O'zbekiston va Yevropa ittifoqi o'rtasidagi o'zaro sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi amaldagi bitim 1996-yilda Florensiyada imzolangan bo'lib, uning doirasida 6 ta qo'shma organ tashkil etildi. Mamlakatimiz Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi institutlari bilan savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik shakllarini qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha amalgamoshirayotgan chora-tadbirlar natijasi o'larоq, bugun O'zbekistonning Germaniya va Fransiya kabi katta iqtisodiy salohiyatga ega Yevropa mamlakatlari, shuningdek, YEI bilan savdo-iqtisodiy aloqalari tobora kengayib bormoqda. Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, 2022-yilda O'zbekiston bilan YEI o'rtasidagi umumiyyatli savdo hajmi qariyb 4,5 milliard dollarni tashkil qilib, 16 foizga o'sgan, bunday o'sishga O'zbekistonning maxsus GSP+ imtiyozlar tizimiga kiritilishi katta turki bo'ldi. O'zbekistonning mazkur tizimga kiritilishi milliy eksportchi korxonalarga Yevropa bozorlariga 6200 turdag'i mahsulotlarni hech qanday bojxona to'lovlarisiz olib kirish imkonini beradi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtida mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun faol ish olib bormoqda. Yevropa Ittifoqi bu intilishlarimizni qo'llab-quvvatlagan holda, ayni yo'nalishda texnik ko'mak uchun 5 million yevro miqdorida mablag' ajratdi. «O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi» Parlament hamkorligi qo'mitasining Bryusselda 2022-yil bo'lib o'tgan yig'ilishida Yevropa vakillariga Prezident Shavkat Mirziyoevning "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ma'no-mohiyati va ahamiyati haqida batafsil axborot taqdim etilgani ham bejizga emas. Ushbu yig'ilishda mamlakatimiz bilan Yevropa ittifoqi o'rtasidagi munosabatlarning joriy holati hamda kelajakda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqibollari muhokama qilindi. Bunda yurtimizda malaga oshirayotgan keng ko'lamli islohatlar o'z samarasini berayotganini, har bir hududlarda investitsiya muhitni yaxshilanayotganini, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, energetika va infratuzilma sohalari bilan bog'liq loyihalarni amalgamoshirishni yanada kengaytirishni hamda atrof muhitni himoya qilish, qishloq joylarni va ekologik barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish omillarini hisobga olib, o'zaro hamkorlikni amalgamoshirish masalalarini atroflicha ko'rib chiqtilar. 2023-yil yanvar-dekabr oylari statistic ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimiz Yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan – 5,8mlrd.\$ga teng tashqi savdo hamkorligini amalgamoshirgan.

O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi o'rni keyingi yillarda sezilarli darajada oshdi. Mamlakat o'zining geosiyosiy joylashuvi, tabiiy resurslari va iqtisodiy rivojlanish salohiyati bilan mintaqadagi muhim o'yinchilardan biriga aylandi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda strategik ahamiyatga ega bo'lib, Xitoy, Rossiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi yirik davlatlar va tashkilotlar bilan keng ko'lamli hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelmoqda. Mamlakatimizning xalqaro siyosiy maydonidagi roli kuchayib bormoqda. Mamlakat BMT, SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti), MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida faol ishtirok etadi. Xususan, O'zbekistonning SHHT doirasidagi ishtiroki, qo'shni davlatlar bilan chegara masalalari bo'yicha olib borilayotgan muzokaralar va Afg'onistondagi tinchlik jarayonlaridagi vositachilik roli mintaqadagi barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ushbu hamkorlik tashkiloti katta geografik hududni qamrab olib, sayyoramiz aholisining qariyb yarmini birlashtiradi. Bugungi kunda SHHTga a'zo davlatlar yalpi ichki mahsulotining umumiyyatini jahon ko'rsatkichining qariyb chorak qismini tashkil qilmoqda. Bu esa endigina 20 yoshga to'lgan ushbu mintaqaviy Tashkilot tomonidan dunyoning barqaror rivojlanishiga qo'shilayotgan hissasining salmog'i yuksak ekanidan dalolat beradi. Shu o'rinda davlatimiz SHHT mamlakatlari, xususan, Rossiya, Xitoy markaziy Osiyo mamlakatlari bilan asosiy savdo-iqtisodiy hamkorliq hisoblanadi hamda 2017–2023 yillar davomida ushbu tashkilot bilan Tovar ayirboshlash hajmi 2,5 barobar, eksport hajmi 1,5 barobar, import hajmi 3,3

<sup>23</sup> [https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)

barobar oshdi. Shu bilan birga, ShHT mamlakatlari bilan tovar ayirboshlashning mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi ham 47,2 foizdan 50,1 foizga oshdi.



**1-rasm. O'zbekistonning ShHT mamlakatlari bilan 2023-yildagi savdo-iqtisodiy hamkorligi**

Quyida berilgan rasmda ko'rishimiz mumkin, 2023 yilda ShHT mamlakatlari O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining 50,1 foizini (31,36 milliard dollar), eksport umumiy hajmining 36,6 foizini (8,94 milliard dollar) va importning 58,8 foizini (22,43 milliard dollar) tashkil etdi. Boshqa mamlakatlarga yetkazib beriladigan eksportning umumiy hajmida oltinni (2023 yilda 8,15 milliard dollar) hisobga olmaganda, ShHT mamlakatlarining O'zbekiston eksportining umumiy hajmidagi ulushi 55 foizni tashkil etadi. 2023 yilda 2022 yilga nisbatan O'zbekistonning ShHT mamlakatlari bilan tovar aylanmasi 18,5 foizga o'sib, 31 362,0 million dollarni tashkil etdi, eksport 1,3 foizga kamayib, 8 936,3 million dollarni tashkil etdi, import 28,9 foizga o'sib, 22 425,6 million dollarni tashkil etdi.

Davlatimiz Shimoliy va Janubiy Amerika davlatlari, xususan, AQSh bilan hamkorligi kengaymoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqdagi ruhi, dini, urf-odat va an'analari yaqin bo'lgan musulmon sivilizatsiyasi mamlakatlari bilan bevosita aloqlar o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbekiston bilan ushbu mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi ham ijobjiy dinamikaga ega. So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizning asosiy eksport hamkorlari orasi Amerika qo'shma shtatlari 22 – o'rindan 120'ringa ko'tarilgani ham davlatlar o'rtasidagi do'stlik iqtisodiy-siyosiy munosabatlar yildan yilga yaxshilanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, oxirgi 6 yil ichida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan Amerika kompaniyalari soni ikki baravarga, AQSH bilan umumiy tovar va xizmatlar savdosi esa shu vaqt oralig'ida uch baravardan oshgan. Amerikaning mashhur kompaniyalari Caterpillar, John Deere, CNH Industrial, General Electric, Hilton va Delphos International O'zbekistondagi investitsiya hajmini oshirgan bo'lsa, Air Products'ning 1 milliard dollarlik investitsiyasi va Qashqadaryo viloyatidagi gazni qayta ishslash zavodiga sarmoya kiritilgan. Bundan tashqari, 2023-yilning birinchi yarmida O'zbekistonning IT-eksporti hajmi o'tgan yilga nisbatan 2,7 barobarga oshib, 145,3 million dollarni tashkil etib Amerika bozori O'zbekiston IT eksportining 45 %ini tashkil qiladi.

1-jadval

**O'zbekistonning Shimoliy va Janubiy Amerika davlatlari bilan tashqi savdo  
aylanmasi dinamikasi (mln. AQSh dollar)<sup>24</sup>**

Davlatlar	2021	2022	2023
AQSh	<b>426,3</b>	<b>493,2</b>	657,3
<b><i>Eksport</i></b>	60,8	124,5	<b>155,4</b>
<b><i>Import</i></b>	365,5	368,7	<b>501,9</b>
Braziliya	<b>350,1</b>	<b>554,6</b>	656,6
<b><i>Eksport</i></b>	1,9	1,2	<b>4,4</b>
<b><i>Import</i></b>	<b>348,2</b>	<b>553,4</b>	<b>652,3</b>

O'zbekistonning Qo'shma Shtatlarga eksporti 2023-yilda 155,4 mln. dollarga yetdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25% ga (301,6) ko'paydi, import esa 36% ga o'sdi. (2022-yil 368,7 million, 2023-yilning mos davrida 501,9 million). Braziliya davlatining xuddi shu ko'rsatkichlariga qaraydigan bo'lsak, tashqi savdo aylanmasi 2023 yilga kelib qariyb bir baravarga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Yangi O'zbekiston rivojlanishda davom etar ekan, AQSh prezidenti Jo Bayden ma'muriyati ham kengaygan va keng qamrovli strategik hamkorlikni ta'minlagan demokratik va bozor islohotlarini qo'llab-quvvatlamoqda. Amerika qo'shma shtatlari davlat kotibi Entoni Blinken 2023-yil mart oyida O'zbekistonga tashrifi doirasida "Biz prezident Mirziyoyevning islohotlar dasturini to'liq amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash orqali imkoniyatlarni kengaytirmoqdamiz. O'zbekistonning mehnat huquqlari bo'yicha erishgan yutuqlari ushbu kun tartibi naqadar transformativ bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi" deb ta'kidlagan edi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi hamkorlik uchun yangidan yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Shu bilan birga, yillik siyosiy maslahatlashuvlar yaqinroq va mustahkam hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan Strategik sheriklik muloqoti darajasiga ko'tarildi. Ushbu yilda yuqori martabali delegatsiyalarining 20 martadan ortiq o'zaro tashriflari, shuningdek, 150 martadan ko'p siyosiy muloqotlar o'tkazildi. AQShning Markaziy Osiyo davlatlariga e'tibori oshib bormoqda.

Yangi O'zbekistonning inson manfaatlari ustuvorligi birinchi navbatda Amerika bilan oddiy o'zbeklar hayotini yaxshilashga qaratilgan bir qancha qo'shma dasturlarga yo'l ochdi. Buning natijasi olaroq, joriy 2024 yil 14-mayda AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) tomonidan Qozog'iston shahrida o'tkazilgan "13-Markaziy Osiyoda Savdo Forumi (CATF)" forumi bo'lib o'tdi. Ushbu forum "Savdo munosabatlari: xalqaro aloqalar ko'prigi" deb nomlangan bo'lib, mintaqadagi aloqa, savdo va savdo siyosatini rivojlantiruvchi asosiy savdo tadbirlaridan biri hisoblanadi. CATF forumi tashkil topgandan beri, 25 ta davlatda 10.000 dan ortiq hukumat va biznes rahbarlari o'rtasida o'zaro savdo aloqali o'rnatgan bo'lib, 32 mln.\$ dan ko'p shartnomalar imzolangan. Ushbu forum doirasida Qozog'iston Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistondan 40 ta kompaniya tomonidan qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlari namoyish etiladigan savdo yarmarkasi chet-ellik xaridor va biznes xodimlari uchun tashkillashtirilgan. Oxirgi 20 yilda Markaziy Osiyoda davlatlari sezilarli yutuqlarga erishib, yuqori rivojlanish salohiyatiga ega bo'ldi. O'tgan yillar davomida mintaqaning yalpi ichki mahsuloti real ko'rinishda yillik o'rtacha 6,2% ga ko'payib, 347 mlrd.\$ ini tashkil etdi. Mamlakatlar tashqi savdosи 2000 yildan qaraganda yeti baravar oshdi. 2022 yilda mintaqada davlatlarining eksport importi qariyb 190 mlrd. \$ini tashkil etdi. Mamlakatimizni Amerika davlati bilan mustahkamlanib borayotgan strategik hamkorligi Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va farovonlikni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida mintaqada hududida tashqi savdo va xalqaro munosabatlar muntazam rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

<sup>24</sup> <https://stat.uz/uz/default/press-relezlar/34336-2023-3>

### Xulosa va takliflar.

Yangi O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi o'rni sezilarli darajada oshib bormoqda. O'zbekiston xalqaro munosabatlarining eng muhim ustuvor yo'naliishi qo'shni, birinchi o'rinda, mintaqaviy davlatlar bilan aloqalar va har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va musthakamlashdan iborat. Mamlakatning geosiyosiy joylashuvi, tashqi siyosiy islohotlari, va iqtisodiy rivojlanish strategiyalari O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi muhim va nufuzli davlatlardan biriga aylantirdi. Yangi O'zbekiston o'zining ko'p vektorli tashqi siyosati orqali Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi va qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirib, xalqaro maydonda faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston xalqaro tashkilotlarda, xususan BMT, SHHT va MDH kabi tuzilmalarda faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlik, barqarorlik, va ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatning iqtisodiy va investitsion siyosati tashqi savdo aloqalarini diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, va yangi bozorlar bilan hamkorlik o'rnatishga qaratilgan. Xususan, Xitoyning "Bir Makon, Bir Yo'l" tashabbusi doirasidagi loyihalarda ishtirok, Yevropa Ittifoqi bilan savdo bitimlari va turizm sohasidagi muvaffaqiyatlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Madaniy va gumanitar sohalarda ham Yangi O'zbekiston o'zining boy tarixiy va madaniy merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilib, turkiy davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirishda, shuningdek, islom dunyosida o'z nufuzini oshirishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning xalqaro munosabatlardagi o'rni kuchayib, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi yutuqlari nafaqat Markaziy Osiyo, balki global miqyosda ham sezilarli ta'sirga ega bo'lib bormoqda. Bu o'z navbatida, Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

*Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-szon*

*Joseph E. Stiglitz (2002) "Globalization and Its Discontents".*

*Mirsaidov M.S. (2006) "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar". O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD-MOLIYA".*

*Mustafoqulova M. (2023) "O'zbekiston respublikasining xalqaro iqtisodiy aloqalari. o'zbekistonning xalqaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish siyosati" maqola.*

*Nazarova G.G', Iminov Z.M., Xalilov X.X., Hamidov O.B. (2011) "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar". Darslik - Toshkent.*

*O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat axborotnoma (2023)  
<https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2>*

*Stephen Mcglinchey, (2017) Rosie Walters va Christian Scheinpflug. - "International Relations Theory".*

*Theodore Moran (2011) "Foreign Direct Investment and Development".*